

MAQBUL KO'CHAT QALINLIGI MO'L HOSIL GAROVI

G'.M. Satipov,

Prof., Urganch davlat universiteti, Urganch

H. R. Yusupov,

o'qituvchi. Urganch davlat universiteti, Urganch

S. K. Salimova,

Magistr. Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya

Maqolada yangi istiqbolli g'o'za navlaridan yuqori xosil olishda maqbul ko'chat qalinligining hosildorlikka ta'siri adabiyotlar taxlili misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiyalar, ko'chat qalinligi, suv berish tartibi, o'g'it me'yori, agrotexnologiya, nav, shoxilanish tipi, vegetatsiya davri.

Аннотация: В статье с использованием анализа литературы рассмотрено влияние оптимальной толщины проростков на урожайность при получении высоких урожаев новых перспективных сортов хлопчатника.

Ключевые слова: Новации, толщина всходов, режим полива, нормы удобрений, агротехника, сорт, тип ветвления, вегетационный период.

Annotation: The article examines the effect of optimal seedling thickness on yield in obtaining high yields from new promising cotton varieties using an analysis of the literature.

Keywords: Innovations, seedling thickness, watering regime, fertilizer rate, agrotechnology, variety, branching type, vegetation period.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy

Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida ekiladigan o'simliklardan (Bug'doy, g'o'za, sabzovot poliz ekinlari) hosildorlikni va iqtisodiy samaradorlikni keskin oshirish, eksport saloxiyatini oshirish masalasi to'g'risida ko'rsatmalar berdi.

Bu jarayonda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha

2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yildi va qishloq xo'jaligiga yuqori daromadli eng ilg'or suv tejamkor texnologiyalardan foydalanib, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozimligi belgilab berildi.

So'ngi 3-4 yilda oziq ovqat xafsizlgini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligida axoli bandligini ta'minlash maqsadida paxta yer maydonlari qariyb 15-16 foizga qisqarib ketdi. Lekin, bu bilan g'o'za ekini uchun bo'lган e'tibor kamaymadi, aksincha ilmiy asoslangan innovatsion texnologiyalar qo'llash, almashlab ekish tizimini takomillashtirish, suv tejamkor texnologiyadan, organik o'g'itlardan foydalanish, mehnat samaradorligini va paxta hosildorligini oshirish hisobiga yuqori sifatli paxta hosilini kamaytirmaslik vazifasi qo'yildi. Hozirgi kunda yuqoriddagi vazifalarni bajarish uchun Respublikamiz seleksioner olimlari tomonidan yangi istiqbolli go'za navlari yaratilmoqda endilkdag'i vazifa yaratilgan istiqbolli g'o'za navlaridan yuqori va sifatli xosil olishimiz hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi.

Shularni inobatga olgan xolda yangi istiqbolli g'o'za navlarining ko'chat qalinligi, suv berish tartibi, o'g'it me'yorining hosildorlikga ta'siri adabiyotlar taxlili misolida o'rganildi. Ma'lumki, hozir Respublikada asosan egat oralig'i 60 sm va 90 sm qilib chigit ekiladi. Yuqorida aytganimizdek, sharoitga ko'ra maqbul tup soni qoldirilmasa, hosildorlik kamayishi mumkin. Maqbulidan ortiqroq ko'chat qoldirish o'simlikning oziqa-suv tartiblarining yomonlashishiga olib borsa, zinch joylashtirilgan ko'chat barglari quyosh nurini to'sib, uning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'lkamizning tuproq iqlim sharoiti turlicha tuzulishga ega va turlicha agrotexnalogiyalarni qo'llashni talab qiladi. G'o'za navlarining maqbul ko'chat qalinligi me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan turli xududlarda juda ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan:

Jumladan Satipov G'.M. (1982 , 1984, 1987, 1987a, 1987b, 1988, 1991, 1995, 1997, 1997a, 1997b, 1997v, 1997g) AN-402, AN-Bayovut-2, Samarkand-3, Oq-oltin, Qizil-Rovot, Toshkent-1, Xorazm-127, Yulduz, AN-O'zbekiston-4, Sharof-75, Farg'ona-3, Namangan-77, Buxoro-6 va S-4727 g'o'za navlari ustida ilmiy ishlar olib borib, ilmiy asoslangan xulosalarini va ishlab chiqarishga tavsiyalarini bergen. U Xorazm vohasida AN-402, AN-Boyovut-2, Samarkand-3, Oq-oltin g'o'za navlarini 60x15-1 ko'chat tizimida joylashtirib, 0-3-1 suv berish tartibida Qizil-Rovot, Toshkent-1 g'o'za navlarini esa 60x20-1 tizimida, 1-3-1 tartibida sug'organda mo'l va sifatli paxta xomashyosi yetishtirish mumkinligini isbotlagan.[1]

Xorazmiy A., va boshqalarni (2004) tajribalarida birinchi shoxlanish tipiga mansub "Xorazmiy-126" o'rta pishar va ikkinchi shoxlanish tipiga mansub F-175 va nisbatan kechpishar va uchinchi – to'rtinchi shohlanish tipiga mansub "Buxoro- 6" navlari uchun Xorazm vohasi o'tloq tuproqlari sharoitida 1-2 tip shohlanishiga esa bo'lган g'o'za navlari tup sonlarini tegishli tuproq tipi va unumdorligiga bog'liq ravishda 100-120 ming qilib, 3-4 tip shohlanishga ega bo'lган sershox g'o'za navlari tup sonlarini esa 80-100 ming qilib belgilash maqsadga muvofiqligini aytib o'tgan.[2]

G'.M. Satipov va I. Ismoilova (2005) ko'p yillik tajriba natijalari asosida quyidagiga, xulosalar qiladilar:

- Tola chiqishi va sifati F-175 nava qaraganda “Xorazm-127”, “Xorazm-150” navlari ancha yuqori pog’onadadir:

- Eng ko’p tola va tolanning sifati g’o’za ko’chatini 60x20-1 tizimda qoldirib, gektar hisobida 200 kg azot, 120 kg fosfor, 100 kg kaliy berib, 0-3-1 tartibda sug’orilganda namoyon bo’lgan;

- Ularning tajribalarida g’o’zani “Xorazm-127” navidan eng yuqori paxta hosili va yuqori navi gektar hisobiga 250 kg azot; 150 kg fosfor, 120 kg kaliy berib, 60x20-1 ko’chat tizimida joylashtirib; 0-3-1 tartibda sug’orilganda olingan.

- Ko’chat tizimini 60x15-1 qilib belgilanganga qaraganda 60x20-1 tizimida tola sifati va hosildorlik oshgani kuzatilgan.[3]

E.I. Samandarovning (2005) ilmiy tajribalarida istiqbolli “Mehnat” hamda “Mehr” navlarini nazorat F-175 nava solishtirib quyidagilarni xulosalar qiladi:

- Ko’chat qalinligini oshirish bilan birlilikda, o’g’it miqdorini ko’paytirish sinalgan g’o’za navlarini tez pisharligini biroz pasaytirdi.

- Sinalgan g’o’za navlaridan yuqori va sifatli paxta hosili olish uchun ko’chat joylashtirish qalinligi (60x15-1, 60x20-1) va suv tartibidan qat’iy nazar ularning o’sishi va rivojlanishi barcha navlarda bir biriga yaqin bo’lgan, faqat g’o’zani 60x20-1 tizimida ekilganda (haqiqiy tup soni 77-78 ming tup/ga) u 60x15-1 (haqiqysi 97-100 ming tup/ga atrofida) tizimga nisbatan bo’yi baland o’sganligi kuzatilgan.

- “Mehnat” g’o’za navidan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirish uchun 78-80 ming tup/ga ko’chat qoldirib (60x20-1), unga 200 kg/ga azot, 120 kg/ga fosfor va 100 kg/ga kaliy o’g’itlari, 1-3-1 tizimida suv berish suv tahchil yillari 0-3-1 tizimida sug’orish kerakligi xaqida aytib o’tgan.[4]

Sh.Teshaev, F.Hasanova, B.Niyozaliev, O.Sindarovlarning (2011) yozishlaricha, g’o’zani yaganalash va ko’chat qalinligini belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- Unumdor tuproqlarda g’o’zaning S-6524, S-4727, Andijon-35, Andijon-37, Mehnat, Sulton navlarida gektariga 90-100, Namangan-77, Andijon-36, Xorazm-127, Namangan-34 navlarida gektariga 110-120 ming tup ko’chat qoldiriladi.

- Unumdorligi o’rta va past yerlarda yuqoridagi ko’rsatkichlarga mos ravishda gektariga 15-20 ming tup ko’chat qoldirish maqsadga muvofiq.

- Tuproq unumdorligi yuqori bo’lgan hududlarda Buxoro-6 navida 90-95, Buxoro-102 navida 80-90, Buxoro-8 navida 100-110 ming tup/ga qoldirish tavsiya etiladi. --Buxoro-102 g’o’za navi kuchli shoxlanib o’sganligi bois tuproq sharoitiga qarab, unumdorlik o’rtacha bo’lganda 90-95, unumdorlik past yerlarda 110, Buxoro-6 va Buxoro-8 g’o’za navlari uchun mos holda 100-120 ming tup/ga ko’chat qoldirish mumkin.

- Mexanik tarkibi qumoq, unumdorligi past yerlarda Buxoro-6 navida gektariga 110-120 va Buxoro-8 navida 120-130 ming tup ko’chat qoldirish kerak.

-Yuqori darajada sho'rlangan yerdarda yaganalash paytida 10-15% ko'proq ko'chat qoldirish lozim. Chunki vegetasiya davrida tuzlarning yuzaga ko'tarilishi oqibatida taxminan shuncha ko'chat nobud bo'lishi mumkin.[5]

R.Nazarov va F.Xasanova larni tavsiyasiga ko'ra ko'chat qalinligi navning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagicha: unumdorligi past, mexanik tarkibi yengil tuproqlarda o'rtapishar 1-1,5 tipda shohlanuvchi va baquvvat o'sadigan navlarni gektariga 110-120 ming tup; unumdorligi, mexanik tarkibi o'rtapishar, 1-1,5 tipda shoxlanuvchi va baquvvat o'sadigan navlarni 90-100 ming tup; tezpishar, kam shoxlanuvchi va past o'sadigan g'o'za navlarini 100-110 ming tup; unumdorligi yuqori bo'lganda esa 80-90 ming tup bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.[6]

Keltirilgan malumtlardan quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

- a) Yuqorida qayd etilgan adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumot, tavsiyalardan ko'rilib turibdiki Respublikamiz turli viloyat tuproq sharoitlarida ekilgan va istiqbolli g'o'za navlarini tup qalinliklari tizimlariga doir tadqiqotlar o'tkazilib, tegishli fikrlar va tavsiyalar berilgan.
- b) Turli tuproq, iqlim sharoitlarida g'o'za navlarini paykalda to'g'ri joylashtirish, uni oziqlantirish, mavsumiy sug'orish me'yorini to'g'ri aniqlab, undan yuqori va sifatli paxta yetishtirish doimo ustivor muammolardan bo'lib kelgan va yangi navlar amaliyatga chiqqanda shunday bo'lib qoladi.
- c) Ko'chatni to'g'ri joylashtirish mo'l xosil olish va tola sifatrining yaxshilanishiga sababchi bo'ladi.
- d) Umumiy olib qaraganda, adabiyotlar sharhidan ma'lumki, yuqorida yozganimizdek, bir tuproq xili tarkibida tip, tipcha, xillar mavjud. Bu sharoitlarda dehqonchilik qilinganda har biri uchun o'ziga xos agrotexnik tadbirlarni qo'llay bilish zarur.

Foydalanimanilgan adabiyotlar

1. G.M. Satipov "Xorazm vohasi sharoitida yangi istiqbolli g'o'za navlarini yetishtirish texnologiyasining ilmiy asoslari" doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent-1998. y.
2. Xorazmiy A., Xorazmiy G'. Hosil ko'chatdan olinadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 6, 2004, 13 b.
3. Ismailova I., "Xorazm vohasi o'tloq-allyuvial tuproqlarida «Xorazm-127» va «Xorazm-150» g'o'za navlarini ko'chat qalinligi, oziqlantirish, sug'orish me'yorlarining o'sishi va rivojlanishiga ta'siri". Nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent 2005 .y.
4. E.I.Samandarov., "Qadimdan sug'orilib kelingan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida yangi g'o'za navlarining hosildorligi". Nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent 2005 .y.
5. Sh.Teshaev,F.Hasanova,B.Niyozaliev,O.Sindarov. To'liq ko'chat-mo'l hosil va sifatli hosil garovi//o'zbekiston qishloq xo'jaliki.-Toshkent,2011-№4,2-b.
6. Nazarov R., Xasanova F. Birinchi ishlov – uni qanday tashkil etish kerak. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 5, 2007, 3 b.